



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

## ERTAK JANRINING LINGVISTIK VA DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

**Ibroximjonova Zulfiya Baxtiyor qizi**

Fargʻona viloyati Fargʻona tumani 61- umumiy oʻrta taʼlim maktabi

boshlangʻich taʼlim fani oʻqituvchisi

+(99890)634-22-54

[zibroximjonova84@gmail.com](mailto:zibroximjonova84@gmail.com)

**Ibroximjonova Zulxumor Baxtiyor qizi**

Fargʻona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

+(99891)909-33-44

[Ibroximjonovazulxumor@gmail.com](mailto:Ibroximjonovazulxumor@gmail.com)

**Anotatsiya.** Quyidagi tadqiqotda ertak janrining lingvistik va didaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, ertak matnlarida qoʻllaniladigan leksik, morfologik va sintaktik birliklarning oʻziga xosligi, badiiy ifoda vositalari hamda obrazlilik darajasi yoritiladi. Shuningdek, ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati, ularning bolalar tafakkurini rivojlantirishdagi oʻrni, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari ilmiy asosda koʻrib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ertak janrining nafaqat adabiy, balki pedagogik jihatdan ham muhim manba ekanligini koʻrsatadi.

**Kalit soʻzlar:** ertak janri, lingvistik xususiyatlar, didaktik ahamiyat, leksik birliklar, obrazlilik, tarbiyaviy vosita.

**Abstract.** The following study analyzes the linguistic and didactic features of the fairy tale genre. In particular, the specificity of lexical, morphological, and syntactic units used in fairy tale texts, artistic means of expression, and the level of imagery are highlighted. Additionally, the educational significance of fairy tales, their role in developing children's thinking, and their didactic potential in forming moral values are examined on a scientific basis. The research results demonstrate that the fairy tale genre is an important source not only from a literary but also from a pedagogical perspective.

**Keywords:** fairy tale genre, linguistic features, didactic significance, lexical units, imagery, educational tool.

Hozirgi davrda taʼlim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Albatta bunga misol qilib axborot texnologiyalari, turizm sohasi, qishloq xoʻjaligi, sogʻliqni saqlash, qurilish sohasi, transport va logistika va taʼlim sohasidagi yangiliklarni keltirishimiz mumkin. Taʼlim sohasiga toʻxtaladigan boʻlsak, yurtimizda bu soha oxirgi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. Taʼlim tizimini takomillashtirish, oʻqitish sifatini va samaradorligini oshirish, zamonaviy bilimlarni yosh va kelajak avlodga yetkazish davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Mamlakatimiz taraqqiyoti, kelajagimiz va farzandlarimizning istiqboli, avvalo, taʼlim va tarbiya tizimining qay darajada rivojlanganiga bogʻliq”[1]. Bu fikr taʼlim jarayonida oʻquvchilarining nafaqat bilim, balki kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligini koʻrsatadi. Albatta aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq ogʻzaki ijodining muhim tarkibiy qismi hisoblangan ertaklarda uchraydigan paremiologik birliklar (maqollar, matallar, hikmatli iboralar) oʻquvchilarning til boyligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda lingvodidaktik kompetensiyasini shakllantirishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Ertak xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan

janrlaridan biri bo'lib, u xalqning tarixiy tafakkuri, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Ertaklar nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki muhim lingvistik va didaktik vosita sifatida ham ilmiy tadqiqotlar markazida turadi.

Ertak janrining lingvistik xususiyatlari bir qanchadir. Ertak matnlari o'ziga xos til birliklari, obrazli ifoda vositalari va an'anaviy formulalar bilan ajralib turadi.

1. An'anaviy boshlamalar ("Bor ekan, yo'q ekan...") ertak tilining muhim elementi bo'lib, voqea zamoni va makonining noaniqligini ifodalaydi[2].
2. Leksik xususiyatlar: xalq tiliga xos sodda, obrazli, ko'pincha takroriy birliklar qo'llanadi.
3. Sintaktik tuzilish: qisqa va ravon gaplar ustunlik qiladi, dialoglar ko'p uchraydi.
4. Badiiy vositalar: mubolag'a, personifikatsiya, metafora kabi usullar keng qo'llanadi.

Ertaklarning tili xalq og'zaki nutqiga yaqin bo'lib, ularning og'zaki tarzda avlodlardan avlodga o'tishini ta'minlaydi. Shuningdek, ertak atamasi qadimdan mavjud bo'lib, Mahmud Koshg'ariy asarlarida ham uchrashi bu janrning tarixiy ildizlari chuqurligini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Ertak janrining didaktik xususiyatlari

Ertaklarning asosiy vazifalaridan biri tarbiyaviy ahamiyatga egaligidir. Ular orqali: ezgulik va yovuzlik qarama-qarshiligi ochib beriladi, bolalarda axloqiy fazilatlar (halollik, jasorat, mehnatsevarlik) shakllantiriladi, ijtimoiy hayotga moslashish ko'nikmalari rivojlanadi. Ertaklar orqali beriladigan didaktik g'oyalar ko'pincha ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, qahramonning sinovlardan o'tishi hayotiy kurash ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan ertaklar pedagogik vosita sifatida katta ahamiyatga ega. Lingvistik va didaktik birlikning uyg'unligi jihatdan qaraydigan bo'lsak, ertaklarda til va tarbiya o'zaro uzviy bog'liq. Obrazli til vositalari orqali berilgan didaktik mazmun tinglovchi yoki o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ertaklar nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki shaxs kamolotiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ertak janri lingvistik jihatdan o'ziga xos badiiy til tizimiga ega bo'lib, didaktik jihatdan esa kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Ularning o'zaro uyg'unligi ertaklarni xalq og'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biriga aylantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.-B.45-46.
2. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Cho'lpon, 1969. – 120 b.
3. Ertak janrining o'ziga xosligi // Academic Research in Modern Science. – 2024. – B. 205–206.
4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: Fan, 1960. – 3-jild. – 450 b.
5. Jo'raev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 256 b.